



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

**Toshkent davlat tibbiyot universiteti Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi faoliyati
Mamatqulov B.**

Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi direktori, t.f.d., professor

Jamoat sog‘lig‘ini saqlash tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining 2004-yil 3-martdagi №99-sonli hamda Toshkent tibbiyot akademiyasining 2006-yil 18-apreldagi №91-sonli buyrug‘i asosida Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshida respublikamizda yagona bo‘lgan jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi (JSSM) tashkil etildi.

JSSMning asosiy maqsadi sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish, jamoat sog‘lig‘ini saqlash tizimi uchun yuqori malakali mutaxassis menejer-kadrlarini tayyorlash, boshqaruv sohasidagi kadrlar malakasini oshirish, aholi salomatligini yaxshilashga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabini uning asosochisi, tibbiyot fanlari doktori, professor Mamatqulov Baxromjon Mamatqulovich 2006-yildan hozirgi kungacha boshqarib kelmoqda.

JSSMda asosiy va qo‘shimcha ta‘lim dasturlari mavjud bo‘lib, asosiy dastur bo‘yicha to‘rt yo‘nalishda magistratura mutaxassislari tayyorlanadi: Sog‘liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog‘lig‘ini saqlash (Master of Public Health (MPH) and Master of Health Administration (MHA)), Sog‘liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog‘lig‘ini saqlash: Profilaktik tibbiyot, Tibbiy sug‘urta ishi hamda Oliy hamshiralik ishi (Master of Science Nursing (MSN)).

JSSMda quyida keltirilgan fanlardan Toshkent davlat tibbiyot universitetining barcha magistratura mutaxassislari talabalariga amaliy mashg‘ulot va ma‘ruzalar olib boriladi: 1. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi (Dalillarga asoslangan tibbiyot), 2. Sog‘liqni saqlash menejmenti va iqtisodiyoti, 3. Tibbiy yordam sifatini oshirish, 4. Maxsus fanlarni o‘qitish uslubi.

JSSMning qo‘shimcha dasturlari asosida Respublika tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inidagi umumiy amaliyot shifokorlari, menejerlar, sog‘liqni saqlash muassasalarining rahbarlari quyidagi fanlardan o‘z malakalarini oshirmoqdalar va ularga belgilangan tartibda sertifikatlar beriladi:

Shu vaqtgacha JSSMni 150 dan ortiq magistrlar bitirib chiqdi. Ushbu bitiruvchilar hozirgi kunda Respublikamiz sog‘liqni saqlash muassasalari, hamda xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotlarda va oliy tibbiy ta‘lim muassasalarida, tibbiyot kollejlari faoliyat olib bormoqdalar.

Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi magistr menejerlarni tayyorlash sifatini oshirish o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida dunyoning yetakchi sog‘lig‘ini saqlash tashkilotlari hamda oliy ta‘lim muassasalari: JSST, AQSHning Kentunki, Boston universitetlari, CDC tashkiloti, Germaniyaning Bonn universiteti, GIZ-xalqaro hamkorlik tashkiloti, Buyuk Britaniyaning “London imperial kolleji”, Italiyaning “Onalik va bolalikni muhofaza qilishi maktabi” bilan uzoq yillar davomida samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

2021-yil “Jamoat sog‘lig‘ini saqlash va sog‘liqni saqlashni boshqarish” (Master of Public Health (MPH) and Master of Health Administration (MHA)) magistratura mutaxassislignining o‘quv dasturi Yevropa jamoat sog‘lig‘ini saqlash ta‘limini akkreditatsiya qilish agentligi (APHEA-Agency for Public Health Education Accreditation) tomonidan akkreditatsiyasidan o‘tkazildi.

Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi xodimlari ilmiy-tadqiqot reja asosida “O‘zbekiston aholisining salomatligini yaxshilash, xavf omillarini aniqlash va tibbiy-profilaktik yordamni takomillashtirish” mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Hozirgi kungacha jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabida 20 dan ko‘proq fan nomzodlari, 3 nafar fan doktorlari tayyorlandi.

Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi xodimlari Respublikamiz sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarda faol ishtirok etib kelmoqdalar.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

